

DARS JARAYONINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGI

Usmonqulova Kamola Dilshod qizi

Guliston davlat pedagogika institute Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

12-24 guruh 2-bosqich talabasi

kamoladilshodovna@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil etishning nazariy-metodik jihatlari hamda uning amaliy samaradorligi yoritilgan. Unda interfaol metodlar, raqamli ta'lim texnologiyalari, muammoli ta'lim, STEAM yondashuvi va pedagogic innovatsiyalarni dars jarayoniga integratsiya qilishning afzalliklari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari darsni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirishi, o'quv motivatsiyasini kuchaytirishi va ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *innovatsion ta'lim, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, dars samaradorligi, kompetensiyaviy yondashuv.*

Zamoniy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar o'qitish jarayoniga yangi talablar bilan chiqmoqda. Ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim omillardan biriga aylangan.

Innovatsion yondashuv bu – an'anaviy o'qitish usullaridan farqli ravishda, o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar majmui. Innovatsion yondashuv ta'lim jarayonida yangi g'oyalar, usullar va vositalarni joriy qilish orqali o'quvchilar faolligini oshirishga, ularning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuv o'z ichiga oladi:

- Interfaol usullar (guruhda ishlash, loyihaviy ta'lim, muammoli o'qitish);
- Raqamli texnologiyalardan foydalanish (intektaktiv doskalar, onlayn platformalar, ta'lim dasturlari);
- O'yinlashtirilgan ta'lim elementlari;
- Kritik fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion usullar qo'llaniladigan darslarda o'quvchilar bilimlarni chuqurroq o'zlashtiradi, ularning motivatsiyasi va ishtiroki yuqori bo'ladi.

Innovatsion yondashuv dars samaradorligini quyidagicha yo'llarda oshiradi:

- O'quvchi faolligi ortadi – interaktiv metodlar o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qiladi;



- Bilim sifatini oshiradi – o'quvchi bilimlarni emas, bilim olish jarayonini o'rganadi;

- Ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi – guruhda ishlash, muloqot, hamkorlik ko'nikmalari rivojlanadi;

- O'z-o'zini baholash va refleksiya – o'quvchi o'z bilim darajasini baholay oladi va kamchiliklarni tuzatish yo'llarini topadi.

Masalan, "Charxpalak" texnologiyasi o'quvchilarni tezkor fikrlashga, bilimlarni mustahkamlashga va o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatadi. Bu esa, o'quvchining mustaqilligini va mas'uliyatini oshiradi.

Innovatsion yondashuvlarni joriy etishda quyidagi to'siqlar kuzatiladi:

- O'qituvchilarning yangi usullarni qo'llash tajribasi yetarli emasligi;
- Ta'lim muassasalarida texnik vositalarning yetishmasligi;
- An'anaviy ta'lim tizimiga bog'liqligi.

Bu muammolarni yechish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

- O'qituvchilar uchun innovatsion usullar bo'yicha treni nglar o'tkazish;
- Ta'lim muassasalarini zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash;
- Innovatsion yondashuvlarni qo'llash bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va tarqatish.

Dars jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarning bilim sifatini, motivatsiyasini va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda samarali vosita hisoblanadi. Intekrativ usullar, zamonaviy texnologiyalar va o'yinlashtirilgan topshiriqlar o'quvchining faol ishtirokiga undaydi. Shuningdek, innovatsion yondashuv o'qituvchilar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq, ushbu yondashuv muvafaqqiyatli joriy etish uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ta'lim tizimidagi muvofiqlikni ta'minlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizov.A Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi. Toshkent – 2019. Fan va texnologiyalar.
2. Xodjayev.O Innovatsion pedagogik texnologiyalarni va ularni ta'lim jarayonida qo'llash. Toshkent – 2020. Yangi asr avlodi.
3. Ishmuhamedov.R.J, Yuldashev.M.A. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent – 2017.
4. Karimova.N. Ta'limda raqamli texnologiyalarning roli va amaliyoti. Toshkent – 2019. Innovatsion ta'lim
5. Tolipov.O'. , Usmonboyeva.M. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent – 2019.
6. Ibragimova.G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari. Toshkent – 2016.



7. Qurmanova.Q.E. , Shrazov.A.Sh. Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalaridan foydalanish Toshkent – 2025.